
TOSHLOQ TUMANIDA EHTIYOJMAND OILALARGA BEPUL BUG'DOY TARQATILMOQDA

Bugun 3-sektor hududidagi MFYlarda istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga 100 kilogramdan don tarqatilgani ham ko'plarni mamnun qildi.

Tuman IIB boshlig'i Avazbek Kattabekov tashabbusi hamda fermerlar homiyligida 45 nafar fuqarolarga bug'doy tarqatildi.

-Men "Ayollar daftari"ga kiritilganman. Bugun uyimizga bepul bug'doy keltirdilar. Juda xursandmiz oilamiz bilan. Inson uchun salomatlik va nondan aziz narsaning o'zi yo'q. Buning uchun ushbu ishlar boshida turgan insonlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman, - deydi Katta ko'cha mahallasida yashaydigan Gulnoza Marasulova.

Tumanda ehtiyojmand oilalarga bepul don topshirish davom etmoqda.

2024-07-01 15:37:05